

---

# FARG'ONA VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

**Farg'ona viloyati statistika boshqarmasi boshlig'i**

## **Rahbar: Shamshidinov Sattor Ro'ziboevich**

Manzil: 150100, Farg'ona sh.,  
Oq yo'l ko'chasi, 104A-uy  
Ish tartibi: dushanba-juma 9.00 dan 18.00 gacha  
(tushlik:13.00 dan 14.00 gacha)

E-mail:[farstat@farstat.uz](mailto:farstat@farstat.uz)

Телефон: +998 (71) 230-8713,+998 (73) 241-7252

Факс: +998 (73) 241-7436

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi statistika sohasida rivojlanishning milliy va mintaqaviy xususiyatlarini hisobga olgan holda, ilmiy metodologiyaga, xalqaro standartlar va qoidalarga asoslangan yaxlit ilg'or statistika axboroti tizimini yaratishga va uning faoliyat ko'rsatishiga yo'naltirilgan yagona siyosatni amalga oshiruvchi, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar, fuqarolar va tashkilotlarning rasmiy statistika axborotlariga bo'lgan ehtiyojini qondiruvchi davlat boshqaruvi organi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi statistika ishlarini tashkil etishni quyidagi printsiplar asosida amalga oshiradi:

- ishonchlilik, xolislik, beg'arazlik;
- dolzarblik, qiyosiylik va barqarorlik;
- qulaylik, ochiq-oydinlik va oshkorlik;
- statistika hisobotini yig'ish, qayta ishlash va umumlashtirish tartibiga har qanday aralashishni istisno etuvchi statistika ishlarini tashkil etish tizimini yaratish.

Quyidagilar O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining asosiy vazifalari hisoblanadi:

- statistika sohasida yagona siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish, statistikani tashkil etishning zamonaviy xalqaro statistika standartlariga javob beradigan samarali tizimini ta'minlash;
- ilmiy asoslangan, bozor iqtisodiyoti asosiy printsiplariga javob beradigan yagona statistika metodologiyasini hamda milliy hisoblar tuzishni ta'minlovchi va xalqaro statistika standartlariga muvofiq bo'lgan ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqish va joriy etish;
- jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy hayotida ro'y berayotgan jarayonlarni har tomonlama tavsiflovchi statistika va hisobot ko'rsatkichlarining tezkorligini, ishonchliligini va xolisligini ta'minlash;
- davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, yuridik shaxslar, davlat muassasalari, xalqaro tashkilotlar va jamoatchilikni belgilangan tartibda statistika ma'lumotlari bilan ta'minlash.

2018-12-19 17:03:11